



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2025 Issue 6

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



BOLALAR NUTQINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Hasanboyeva Dilnavoz Ilhomjon qizi,

Farg'ona davlat universiteti

xorijiy tillar va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi,

Ilmiy rahbar: **M. Qurbonova**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

dilnavozhasanboyeva84@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari tog'risida fikr yuritilgan.

Annotation: This article discusses the specific features of the speech of preschool-aged children.

Kalit so'zlar: Nutq, talaffuz, ota-ona va muhit ta'siri, yosh bosqichlari, so'z boyligi, taqlid qilish, sodda grammatik tuzilma.

Key words: Speech, pronunciation, the impact of parents and environment, age stages, vocabulary, imitation, basic grammatical structure.

Inson o'z fikrlarini, xohish-istaklarini, tuyg'ularini til orqali bayon etadi va bu jarayon nutq deyiladi. Xo'sh, mazkur jarayon bolalarda qanday shakllanadi? Bolalar to'liq gapira olishi uchun qanday bosqichlardan o'tishi lozim?

Dastlab bola tug'ilgandan so'ng biron joyi og'risa, sovqotsa, qorni och qolsa yoki isib ketsa yig'laydi. Keyinchalik 2 yoki 3 oylik bo'lganda chaqaloq "a-a-a-a", "o-o-o-o" kabi turli yoqimli tovushlar chiqarishni boshlaydi. Va bu bolalar nutqi rivojlanishining birinchi bosqichi sanaladi. Keyingi bosqichda, ya'ni bolalar 4-6 oylik bo'lganda, "ga-ga-ga", "ba-ba-ba" kabi unli-undosh tovushlarni birga talaffuz qilishni boshlashadi. Va bu bolalar nutqi rivojlanishining 2-bosqichi hisoblanadi. Keyinchalik 12 -18 oylik bo'lganda 1 dona so'z aytishni boshlashadi va bu so'z butun ma'noni anglatadi. 1 ta so'zni ham, harflarini almashtirib, o'zlariga qulay usulda, shirali qilib talaffuz qilishadi. Va bu jarayon bolalar nutqi rivojlanishining 3-bosqichi sanaladi. Uchinchi bosqichda ko'p bolalar, masalan, non so'zini "nanna" deb, mashina so'zini "didit" deb, oyoq kiyimlarini "tak-tak" deb, itni "babu" deb talaffuz qilishadi. Misol uchun aynan shu jarayonda, bolalar onasiga "nanna" deyishsa, aynan shu bir so'z "non yeyman, qornim och"-degan butun bir ma'noni anglatadi. Shundan so'ng 2 ta so'zli iboralar aytishadi, 2-3 yoshga yetganda sekin astalik bilan qisqa gaplar gapirishni boshlashadi va bu qisqa gaplar juda oddiy grammatik strukturada bo'ladi. Lekin tushunsa bo'ladigan, ma'noli bo'ladi. 3 yoshga to'lgandan keyingi davrda, ya'ni bolalar 4, 5, 6 yoshlarida to'liq, ravon gapirishadi. Shunday birinma-ketinlikda bolalar nutqi rivojlanadi.

Shuningdek bolalar nutqi shakllanishida eng asosiy jihatlardan biri bu taqlid qilishdir. Ya'ni bolalar endi tili chiqayotgan yoki endi nutqi



rivojlanayotgan paytda, atrofidagi insonlar, atrofida ko'rayotgan, eshitayotgan narsalariga taqlid qilishni boshlaydi. Bugungi kundan olib, misol keltirsam. Masalan, hozirda ko'pchilik ota-onalar farzandlariga telefon, televizorda turli xil qiziqarli, farzandlari yoshiga mos multfilmlar qo'yib berishadi. Aynan o'shalarni ko'rib, bola taqlid qilishni boshlaydi. Masalan, ko'pchilikka ma'lum 2-3 yosh o'g'il bolalar ko'proq turli xil mashinalar o'ynashni yaxshi ko'radi va aynan o'sha jarayonda ular turli xil tovushlarni talaffuz qilib mashinachalarini o'ynashadi. Ya'ni mashina yurg'izishyotganda "g'in-g'in-g'in", ikkita mashinani urushtirganda "bidish" degan so'zlarni aytishadi. Vaholanki, biz ularni yonida bunday harakatlar, tovushlar qilmaganmiz. Ammo o'sha multfilmlarni ko'rish, eshtish orqali bu jarayon bolalarda shakllangan bo'ladi.

Yuqorida bolalar nutqining rivojlanish bosqichlari, ularning nutqi shakllanishida asosiy jihatlaridan biri haqida fikr yuritildi. Ammo masalaning yana bir tomoni shundaki, ya'ni maktab yoshidagi hamma bolalarning ham nutqi ravon, tog'ri shakllangan bo'lmaydi. Bunga asosiy sabab bu bolaning oila muhiti, atrofidagi insonlari bo'ladi. Tan olish kerak, kattalar bolajonlarni ovutish, erkalash, o'ynatish maqsadida ularga bolalarcha tilda gapirashadi. Bolalar tiliga moslashishga harakat qilishadi. Va bu juda yaxshi harakat, albatta, bu bolalarga yoqadi. Ammo buning ham chegarasi bo'lishi kerak, bu harakat davomiy bo'lmasligi lozim. Ya'ni bolalar o'rta yoshga yetganda, 4-5 yoshlarida ularga buyumlar, hayvonlar, o'simliklar va shu kabi narsalarning asl nomini, vazifalarini to'g'ri va aniq talaffuzda aytish judayam muhim. Ayniqsa bunday davrda, ko'proq ota-onalar farzandlari bilan muloqot qilib, gaplashib, kichkina dialoglar qilishlari kerak. Chunki bunaqa suhbatlar ham bolalar nutqi tekis va ravon bo'lishini ta'minlaydi.

Aynan bolalar bizning kelajagimiz. Ularning nutqi qanchalik rivojlansa, chiroyli bo'lsa, bu ularga kelajakda yetuk bir shaxs bo'lishlari uchun poydevor bo'ladi. Faqatgina bunda oilaviy muhit va ma'lum e'tibor katta ahamiyatga ega.